

# TONG YULDUZI

Vatan yagonadir,

Vatan bittadir!

N:28 (66985)

2014-yil

14-iyul

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqsa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092



## BOLALIKNING SHODON KUNLARI

Mamlakatimizda bolajonlarning yozgi ta'tilini mazmunli tashkil etish, ularning miriqib hordiq chiqarishi, salomatligini mustahkamlashi uchun zarur barcha shart-sharoit yaratilgan. «Sog'lom bola yili» Davlat dasturi doirasida bu ishlar ko'lami yanada kengaymoqda.

(Davomi 3-betda) ▶

Sh. MAXMADIEV va N. SULTONOV o'lgan surʼular



## DIYORANING HUNARI BOR

ravishda tanlash sirlarini ustozidan sidqidildan o'rganib kelmoqda.

— Ta'til kunlaridan unumli foydalanib, ingliz va rus tillarini mukammal o'rganishga, maktabda olgan bilim va ko'nigmalarimni yanada boyitishga bel bog'lagenman, — deydi Diyora.

Diyora Erkinova Toshkent viloyati, Zangiota tumanidagi 14-umumta'lim maktabi o'quvchisi. Tirishqoq, izlanuvchan bu qiz Respublika «Barkamol avlod»

bolalar markazi qoshida tashkil etilgan «Munchoqli bezak» to'garagiga qatnab, munchoqlarning katta-kichikligini, uning ranglarini bir-biriga munosib

**Ushbu sonda:**

**Farahbaxsh  
kunlar  
shukronasi**

2-bet

**Vatanning  
chirog'i**

4-bet

**SHO'RCHILIK  
YOSHLARGA  
MUNOSIB  
SOVG'A**

7-bet

Odina SAHOBIDDIN qizi,  
poytaxtimizning  
Yunusobod tumanidagi  
96-umumta'lim maktabi  
8-«A» sinf o'quvchisi

# FARAHBAXSH KUNLAR SHUKRONASI

Prezidentimizning «O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining yigirma uch yillik bayramiga fayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida»gi Qarorini xalqimiz ko'tarinkи kayfiyatda qarshi oldi. Bayram tadbirlarining «Yagonasan, muqaddas Vatanim, sevgi va sadoqatim senga baxshida, go'zal O'zbekistonim!» degan ezgu g'oya asosida o'tkazilishi barcha yurdoshlarimiz qatori o'g'il-qizlarimizning ham dili dagi orzu-umidlarini o'zida yaqqol ifoda etgani bilan yanada ahamiyatlidir.

Istiqlolning ilk kunlaridan oq jismonan sog'lom va ma'nан yetuk barkamol avlodni tarbiyalash davlatimizning eng ustuvor vazifasi etib belgilandi. Hukumatimiz tomonidan qator umummilliy dasturlar, qaror va farmonlar qabul qilindiki, ularda xalqimizning ezgu orzusi bo'lgan sog'lom bola tarbiyalashdek olyjanob maqsadga yo'g'rilgan yoshlar masalasi o'z aksini topdi. Birinchi navbatda, «Sog'lom ona - sog'lom bola» dasturi amalga oshirildi, ona va bola sog'ligini muhofaza qilishning milliy modeli shakllantirildi.

Sog'lom bola deganda, eng avvalo, jismonan sog'lom bolani tasavvur qilamiz. Jismonan sog'lomlik zamirida esa, albatta, jismoniy tarbiya va sport yotadi.

Raqamlarga e'tibor qaratsak, 2003 - 2013-yillarda

1816 sport obyekti ishga tushirilgan bo'lsa, birgina o'tgan yilning o'zida 113 ta sport inshooti va suzish havzasi, 55 ta bolalar musiqa va san'at maktabi qurilib, foydalanimish topshirildi. Ushbu obyektlarning 132 tasi qishloq joylarda bunyod etilgani e'tiborga molik.

Ayni kunda O'zbekistonda ikki millionga yaqin bola, shu jumladan, 842 ming nafer qizlar 30 dan ortiq sport turi bilan muntazam shug'ullanmoqda.

Yurtboshimiz tomonidan yoshlarga bildirilayotgan yuksak ishonch ularni yangi-yangi marralar sari ilhomlantirmoqda. O'g'il-qizlarimizning fan, ta'lim, sport va san'at sohalarida erishayotgan mislsiz g'alabalari tafsinga sazovor. Yoshlarimizning ulkan muvaffaqiyatlari haqida o'ylaganimiz sari, ko'p bora takrorlaganimiz «Kim edig-u, kim bo'ldik», degan so'zlar qulog'imiz ostida jaranglayveradi. Bugungi farahbaxsh kunlarimizga qayta-qayta shukronalar aytamiz va istiqlol, deb atalmish bebahone'matning qadrini yanada teranroq his etaveramiz.

Deyarli har kuni ommaviy axborot vositalari orqali xushxabarlar bilan tanishyapmiz.

Yoshlarimiz noyob iste'dodlari bilan butun dunyoni lol qoldirishmoqda.

Jumladan, yosh iqtidor egasi Islom Umrzoqov an'anaviy xonandalik yo'nalishida Pekinda bo'lib o'tgan «Sung Ching Ling» xalqaro festivalida 1-o'rinni egalladi. Italiyaning Peredjo shahrida o'tkazilgan «Rossegnax» xalqaro ko'rik-tanlovida Gran pri sohibi bo'ldi. Diyor Roziqov Birlashgan Arab Amirliklarida o'tkazilgan xalqaro ko'rgazma va Polshadagi «San'at» festivalida o'z asarlari bilan ishtirok etish uchun taklif etildi. Sardor Tursunov skriptka yo'nalishida Fransiya, Italiya, Gretsiya mammalatlarda bo'lib o'tgan xalqaro ko'rik-tanlovarda ishtirok etib, faxrlri o'rinlarni egalladi. Uspenskiy nomidagi respublika ixtisoslashtirilgan musiqa akademik litseyi o'quvchisi Shuhrat Turdixo'jayev Moskva shahrida bo'lib o'tgan «Bolalar ovozi» ko'rik-tanlovida 1-o'rinni sohibi bo'ldi.

Sport sohasida esa biringina 2013-yilda poytaxtlik yosh sportchilar nufuzli xalqaro musobaqlarda 52 ta oltin, 29 ta kumush va 21 ta bronza medalini qo'lga kiritiganini faxr bilan aytish o'rni.

Yana xushxabar oldik. Toshkent shahar, Hamza tumanidagi 152-umumta'lim maktabi o'quvchisi Bahora Abdusattorova Osiyoning «Eng yaxshi yosh shaxmatchisi» nominatsiyasi g'olib bo'libdi. Aka-uka shaxmatchilar Islombek va Javohir Sindorovlar ikki karra jahon championi, degan yuksak nomga sazovor bo'lishdi. Bu ulkan g'alabadan har bir yurdoshimiz qalbi hayrat va hayajonga limmo-lim bo'ldi. Bu orqali qanchadan qancha bolakaylarning shaxmatga bo'lgan qiziqliishi ortdi va bugungi kunda shaxmat to'garaklari yangi-yangi iste'dodlarni kashf qilmoqda.

Bu kabi yangiliklar, xushxabarlar biz uchun odatiy holga aylandi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Biroq jazzi yuraklarning mislsiz muvaffaqiyatlari haqidagi xabarlar har gal qalbimizni to'qinlantiraveradi.



YAPONIYALIKLAR  
QAYSI TILNI  
ORGANISHYAPTI?

Mustaqillik tengdoshi bo'lgan Alisher ismli bir yigitni taniman. U oliv o'quv yurtida o'qish bilan birga inglz, xitoy tillarini mukammal biladi. Uning aytishicha, ta'til kunlarida chet tiliga oid bilimlarini yanada mustahkamlash maqsadida xitoy oshxonasiga ishga kiribdi. Bu yerda asosan, chet ellik mehmonlar tamaddi qilishgani bois, eshikdan kirib kelganlarga ingliz tilida murojaat qilinlar ekan.

Kunlarning birida 15 nafarga yaqin yaponiyalik yoshlar kirib kelishibdi. Ularga tartib-qoidaga muvofiq, inglizcha muomala qilibdi, biroq ular tushunmadik, degandek yelka qisishibdi, xitoy tilida gapiribdi, yangi tushunishmabdi, rus tilida so'z boshlabdi, yana o'sha javobni olibdi. Bu orada oshxona xizmatchilar ham yetib kelishibdi. Biroq, ular ham yaponiyaliklarning tilini tushunishmabdi. Biroq, jumlidan so'ng, yaponiyaliklar:

- Biz o'zbekcha bilamiz, - deyishibdi.

Yaponiyalik mehmonlar yosh olimlar bo'lib, ular o'zbek tilini mukammal o'rganish va o'z yurtlarida yoshlarga ham bu go'zal, jozibador tilni o'rgatish niyatida O'zbekistonga kelishgan ekan.

- Men o'sha vaqtgagi holatimni hech qachon unutmayman, - deydi Alisher. - Nega ularga o'zbek tilida salom bermadim, deya o'zimdan qattiq xafa bo'lganimni tasavvur ham qilolmaysiz. Shu voqeab sabab bo'ldi-ju, men xorijlik mehmonlarga, eng avvalo, «Assalomu alaykum», deya o'zbek tilida murojaat qiladigan bo'ldim.

Alisherning so'zlarini tinglab, o'ylanib qoldim: bugun bizning istak va maqsadlarimiz, orzu va intilishlarimiz ro'yobini ko'rmayapmizmi?!

Ayni kunlarda xalqimiz eng ulug' va eng aziz bayram - Mustaqilligimizning qutlug' 23 yilligini munosib nishonlash uchun katta tayyorgarlik ko'rmoqda. Bunyodkorlik, yaratuvchilik, yashnatuvchilik ishlari avjida. Har sohada oldindan borishga harakat qilayotgan yoshlarni ko'rib, dilimiz yayraydi. Chunki siz - aziz o'g'il-qizlar kelajakka ishonch bilan qaraysiz. O'z kelajagingizni o'z go'larlingiz bilan qurmogdasiz. Shunday ekan, Ona yurt mehrini, uning manfaatini dilingizga jo qilib, Vatanim menga nima berdi, deb emas, balki men Vatanimga nima bera oldim, deb yashang. Zero, shu aziz Vatan - barchamizniki, uning farovon kelajagi va iqboli uchun yashash, kurashish har birimiz uchun eng olyi baxt.

Feruza ADILOVA

Z. MAMATQULOVA olgan suratlari

## «QALDIRG' OCH» NING QALDIRG' OCHLARI

Tumanimizda ijodkor o'quvchilar uchun «Qaldirg'och» to'garagi tashkil etilgan. Mana, bir yarim yillardiki, ijodiy mashqlarimiz bilan turli ko'rlik-tanlovlarida ishtirok etib, qator yutuqlarga erishib kelmoqdamiz.

To'garakka boshchilik qilayotgan O'zbekiston Jurnalistlar ijodiy uyunmasi a'zosi Nasibaxon Hojimatova tashabbuslari bilan yaqinda «Assalom, O'zbekiston!» ko'rsatuvida ham ishtirok etdi. Bir necha tengdoshlarimning ilk to'plam-u kitobchalar ham nashr etildi. Kuni kecha to'garagimizning eng faol a'zosi Shalola Tojiboyevanining «Bahor sog'inchi» nomli kitobi ham nashrdan chiqdi. Men barcha do'starimga omad tilab, ustozimizga minnatdorchilik bildirmoqchiman.

*Ma'sumaxon SALOHIDDINOVA,  
Farg'onan viloyati, O'zbekiston tumanidagi  
4-umumta'l'm məktabining  
9-sinf o'quvchisi*

## MUTOLAAGA NIMA YETSIN!

Ta'til kunlari sevimli gazetam «Tong yulduzi»ning ingliz tili va sport sahifalari orqali berib borilayotgan maqlolar, tengdoshlarimning she'r-u hikoyalarini o'qib boraman.

Chet tilidagi turli topshirqlarni bajarishga, tarjimalarni mutolaa qilib, yangi so'zlarni eslab qolishga harakat qilmoqdamon. Boisi, ta'til kunlariagi eng muhim rejalarimidan biri til o'rganishdir. Bundan tashqari, gazetada «Tarixiy ma'lumotlar» sahifasi tashkil qilinib, qiziqarli ma'lumotlar berilib borilishini istayman.

Shuningdek, Xudoyberdi To'xtaboyevning «Jannati odamlar» va O'tkir Hoshimovning «Dunyoning ishlari» romanini mutolaa qilyapman. Yangi o'quv yili boshlangach, o'qiganlarimi do'starimga ham so'zlab bermoqchiman.

*Shohista XOLMURODOVA,  
Toshkent shahar,  
Sergeli tumanidagi  
300-DIUM o'quvchisi*



## TA'TIL MAROQLI O'TSIN

Aziz tengdoshlar, yozning jazirama kunlarida ona tabiat qo'yndida mazza qilib dam olish, zilol suvlarda miriqib cho'milishning o'ziga yarasha gashti bor. Shunday emasmi?

Agar siz ham ta'tilda dam olish maskanlariga boradigan bo'lsangiz, ayrim xavfsizlik qoidalarini yodingizga solib o'tmoqchiman:

\* Ochiq suv havzasida cho'milmoqchi bo'lsangiz, kattalar nazorati ostida suvga tushganingiz ma'quil.

\* Tez oqayotgan suvga tushmang, suv sirtida oqim kuchsiz ko'rinsa-da, tubida, aksincha, kuchliroq bo'ladi.

\* Imkoniyatingizni hisobga olmagan holda qirg'oqdan uzoqqa suzib ketmang.

\* Quyosha toblangach, birdaniga sovuq suvga tushmang, u holda tomirlaringiz tortishib, xavfda qolishingiz mumkin.

\* Mohir suzuvchi bo'lsangizgina, boshqalarga yordamga shoshiling. Aks holda, o'zingizni ham, qutqarayotgan odamingizning ham hayoti xavf ostida qoladi.

\* Faqat suzishga ruxsat berilgan joylardagina cho'miling, belgilangan joydan o'tib ketmang.

Yuqorida xavfsizlik choralariga rioya qilib, yozgi ta'tilni maroqla mazmunli o'tkazishingizni tilaymiz.

*Maftuna SIROJIDDINOVA,  
poytaxtimizning Mirzo Ulug'bek tumanidagi  
ixtisoslashtirilgan davlat umumta'l'm məktabi  
9-sinf o'quvchisi*

## BOLALIKNING SHODON KUNLARI

Ayni kunlarda Toshkent viloyati, Bo'stonliq tumani «Avtomobilchi» nomli yozgi bolalar dam olish va sog'lomlashitirish oromgohi ham bolajonlarning eng sevimli maskaniga aylangan. Bu yerda yuzdan ortiq o'g'il-qizlar maroqli hordiq chiqarib, bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazmoqda.

E'tirof etish joizki, oromgohda o'quvchilarning ko'ngilli dam olib, salomatligini yaxshilashi uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Fan, sport, hunarmandlik, musiqa, tasviriy san'at, sport to'garaklar ularning ixtiyorida.

Bolalarda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida suzish, futbol, shaxmat, shashka, «Quvnoq startlar» sport musobaqlari hamda «Salomatlik – tuman boylik», «Sport – mening hayotim», «Vatan tuyg'usi», «Biz baxtiyor avlodmiz» tadbirleri o'tkazilmoqda.

Yaqinda oromgohda yoshlar orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, ularning dunyoqarashi, ong-u shuuri va tafakkuri, kelajakka ishonchini mustahkamlash, ona Vatanga muhabbat tuyg'ularini yuksaltirish maqsadida «Biz buyuk yurt farzandlarimiz!» shiori ostida ma'naviy-ma'rifiy, madaniy va sport tadbirleri bo'lib o'tdi.


«Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati hamda qator mutasaddi taskilotlar bilan hamkorlikda tashkil etilgan mazkur tadbirda oromgohda dam olayotgan bolajonlar ishtirokida «Kashandalikning zararli oqibatlari», «Davlat ramzları», «Ommaviy madaniyat», «Sen tarixni bilasanmi?», «She'riyatga oshnomisiz?» kabi mavzularda davra suhbatlari, «Rang-tasvir san'ati», «Kashtachilik sirlari», «Chaqqonlar musobaqasi», «Biz buyuk yurt farzandlarimiz» shiori ostida biri-biridan qiziqarli ko'rlik-tanlovlar o'tkazildi. Ayniqla, «O'zbekkino» Milliy agentligi tomonidan taqdim etilgan «Sariq devni minib» filmining namoyishi bolajonlarga olam-olam zavq bag'ishladi.

Tadbir so'ngida davra suhbatlari, ko'rlik-tanlovlar hamda sport musobaqalarida faol ishtirok etgan bolajonlar faxriy yorliq va esdalik sovg'alari bilan taqdirlanishdi. «O'zbeknavo» estrada birlashmasi xonandalari hamda O'zbek Davlat sirkasi artistlarining chiqishlari esa nafaqat yosh o'g'il-qizlar, balki barcha ishtirokchilarga quvonch ulashdi.


*J. KAMOL*



*H. HAMIDULLAYEV o'lgan surʼalar*



# TANBURNING SEHRLI NAVOSI



Qashqadaryolik Fazliddin aka Oripov va Lobar opa Rashidova oilasidagi to'rt nafar farzandning to'ng'ichi bo'Igan Husniddinda musiqaga bo'Igan havas erta uyg'ondi. U boshlang'ich musiqiy ta'limni birinchi uestozi Sherzod aka Jabborovdan oldi. Iste'dodli o'quvchidagi qobiliyatni ilg'agan o'quvchilar unga o'qishni poytaxtda davom ettirishni tavsiya etishdi. Hozirda yosh musiqachi mazkur ta'lim dargohida ustozlari – O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar Nodir Sobirov va Toir Qo'ziyevdan tanbur chalishning nozir sirlarini o'rganmoqda.

Yosh sozanda 2013-yili Toshkent

Xizmat taqozosi bilan Uspenskiy nomidagi Respublika ixtisoslashirilgan musiqa akademik litseyiga borgandik. Bilim yurtining muhtasham zali o'quvchilar-u ota-onalar bilan gavjum. Shu payt sahnaga qo'lida tanbur ko'targan bir yigitcha chiqib keldi. Yig'ilgan jamoaga ta'zim qilgach, tanburni cherta boshladi. Shovqin zumda tinib, sokin zalda nafis musiqa yangradi. Shu damda barchani sozning mayin navosi sehrlab qo'ygan edi.

shahrida litsey, kasb-hunar kollejlari o'quvchilar o'tasida o'tkazilgan yosh ijrochilar ko'rnik-tanlovida o'rinni qo'lga kiritib, o'quvchilar ishonchini oqladi.

Husniddin Hamidov darsdan bo'sh vaqtlarida she'reiy kitoblar o'qidi, ingliz tilini mukammal o'rganishni maqsad qilgan. Shuningdek, sportning futbol, voleybol turlari uning jon-u dili. Kelajakda O'zbekiston Davlat Konservatoriyasida tahsilni davom ettirib, Turg'un Alimatov singari mohir sozanda bo'lishni niyat qilgan bu izlanuvchan tengdoshingiz orzulari ushaliшини chin dildan istadik.

Dilorom HOTAMOVA

uyiga borolmaydimi?

– Ninachilar adashmaydi, anavi boshidagi partarka o'xshagan ninalarini ko'ryapsanmi, ana shu «antenna» unga to'g'ri yo'lni ko'rsatib turadi.

– Ninachi kapalakning o'rtoq'imi?

– Topding, o'rtoq'i, – jilmayadi Ravshan bobo. – Ana, qara, u gulxayriga qo'nib turgan kapalak yoniga boryapti.

Firdavs bobosi ko'rsatgan



tomonga qaradi.

Qizil kapalak ninachini ko'rdi shekilli, salom, degandek qanotlarini silkidi. Ninachi uning qanotlariga dumini sal tekzibiz qo'yidi, parvoza davom etdi. Kapalak unga ergashdi.

– Bobo, kapalagimiz bilan ketmoqchi. Keyin bog'chamizga qaytadimi? – tashvishlanib so'radi Firdavs.

– Albatta, qaytadi, axir uning opa-ukalari shu yerda, uning uyi – Vatan shu yer axir, – ishonch bilan dedi Ravshan bobo, –

– Voy, u adashib goldimi, endi

## TOVOQSOYDA O'TGAN ANJUMAN

Ya qinda  
Toshkent  
vilo yati,  
To voq soy  
iqtisodiyot va  
tadbirkorlik  
kasb-hunar  
kollie jida

bitiruvchi yoshlarga tantanali diplom  
topshirish marosimi o'tkazildi.

Tadbirda Toshkent viloyati hokimining o'rmosari, viloyat Xotin-qizlar o'mitasini raisi Sayyora Fayziyeva, Toshkent Pediatriya tibbiyot instituti professori Xurram Haydarov, Toshkent viloyati O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi boshqarmasi boshlig'ining ma'naviyatma'rifat ishlari bo'yicha o'rmosari Sohiba Alimjonova, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, «Tong

yulduzi» gazetasi bo'lim muharriri, shoir Axtamquli ishtirot etib, mustaqilligimizning 23 yillik to'yi arafasida qo'llariga diplom olib, katta hayotga qadam qo'ygan yoshlarni chin dildan qutlashdi. O'z navbatida, mazkur kollejni tamomlagan 265 nafar bitiruvchi yigit-qizlar ota-onadek mehrion, qadrondon bo'lib qolgan ustozlariga o'zlarining minnatdorliklarini bildirishi.

O'z muxbirimiz

– Aldamang, quyosh botganda qorong'i bo'ladi. Shahzod qorong idan qo'rqa, unda men bilan o'ynamaydi.

– Quyosh botgan zahoti qorong'i tushmaydi, polvon. Ishonmasang, hali quyosh botishini kuzatamiz. Quyosh botganda shom bo'ladi, lekin hali kun yorug' bo'ladi.

– Quyosh qayerga botadi, yiqilib ketmaydimi? – tashvishlanib so'radi Firdavs. Ravshan bobo kulib yubordi. – Obbo, savolni ham qotirding-ku, polvon. Quyosh yiqilmaydi, tog'ning orqasiga botadi.

– Biz toqqa boramizmi?

– Yo'q, albatta, biz shu yerda turib ham uni qanday botayotganini ko'ra olamiz.

– Bobojon, quyoshga aytung, botmasin.

– Negi unday deysapsan, polvonim, qorong idan qo'rqa sanam?

– Men qo'rqa man, gullarim qo'rqa, keyin kapalaklar ham ketib qoladi, nega desangiz, ularning Vatanida chiroq yo'q.

Ravshan bobo nabirasining boyo o'zi shunchaki aytib yuborgan Vatan so'zini tushunganidan shodlanib, uni bag'riga bosdi.

– Polvon, Vatanni chiroq'i borligi, chiroyligi uchun yaxshi ko'rishmaydi. Uni qanday bo'lsa shundayligicha yaxshi ko'rishadi. Shuning uchun ham u – Vatan! Yodingda tut, sen ham o'z uyingni boricha yaxshi ko'rgin, xo'pmi?

– Xo'p, bobojon, men uyimizning chiroq'i bo'limasayam yaxshi ko'raman. Men sizni ham yaxshi ko'raman, – bobosini quchoqladi Firdavs.

Ravshan bobo nabirasini gapini hali unchalik tushunib yetmaganligini bilsa-da, negadir quvonib ketdi. Ko'ziga yosh to'ldi. Jajji qalbiga ona Vatanini joyleyatgan nabirasining lo'ppi yuzidan o'pdi.

Muhabbat HAMDOVA

## MATCH UP THE PAIRS OF THESE WORDS

(So'zlearning juttalarini toping)

Use these words:  
 teacher  
 reader  
 patient  
 driver  
 shopkeeper  
 child



Passenger and .....



Doctor and .....



Writer and .....



..... and customer



Mother and .....



..... and pupil

## SIMPLE PAST TENSE

(O'tgan o'tgan zamon)

O'tgan zamonda biror-bir bo'lib o'tgan ish-harakatni ifodalash uchun oddiy o'tgan zamon ishlatalidi:

ega + fe'l (o'tgan zamona)

For example: I wrote a letter to my brother yesterday.

Inkor shaklida did yordamchi fe'lidan so'ng not inkor yuklamasini qo'shish orqali yasaladi:

ega + did not + fe'l

For example: She did not read this book last night.

Savol shakli did yordamchi fe'l egadan oldinga o'tkazish orqali yasaladi:

did + ega + fe'l?

For example: Did you see Olim last week?

Ingliz tilida ikki xil: to'g'ri va noto'g'ri fe'llar mavjud bo'lib, ushbu zamonda to'g'ri fe'lning o'zagiga -ed qo'shimchasi qo'shiladi, noto'g'ri fe'lning esa o'zagi o'zgarib ketadi: do - did, make - made, go - went va hokazo.

For example: It rained yesterday.

Sardor wanted to go to the museum.

He went to the park.

Ushbu zamonning kalit so'zлari: yesterday, last night, last week, last month, last year, 2 hours ago, in 1996.

## Proverbs (Maqollar)

An apple a day,  
 Keeps the doctor  
 away.



East or west  
 home is best.

## TEST

1. My brother ... to  
 Bukhara last summer.  
 a) travel; b) traveling;  
 c) traveled.

2. We ... return our  
 books to the library last  
 week.  
 a) didn't; b) don't;  
 c) doesn't.

3. They ... a new car  
 yesterday.  
 a) buy; b) bought;  
 c) buying.

4. Yesterday my  
 mother ... delicious meal.  
 a) cooked; b) cook;  
 c) cooking.

5. Dildora ... go to school  
 yesterday because she was ill.  
 a) -; b) didn't;  
 c) doesn't.

6. Salim ... all his  
 homeworks two hours  
 ago.  
 a) did; b) went; c) do.

7. My grandmother ...  
 me when I was reading a  
 book last night.  
 a) call; b) called;  
 c) calling.

8. I ... my shoes before  
 you came.  
 a) cleans; b) cleaning;  
 c) cleaned.

Dinara SHAKIROVA  
 tayyorladi

Atoqli bolalar shoiri Qambar OTA she'riyatiga sayr qilar ekansiz, ijodkorning topqirligi, tilining ravon va soddaligi, tasvirdan ustalik bilan foydalana olishi e'tiboringizni o'ziga tortadi. Shu yili chop etilgan Qurdosh Qahramonovning «Bolalikka oshufsta ko'ngil» nomli kitobida ham shoirning so'z qo'llashdagi o'ziga xos uslubiga yuksak baho berilgan. Bir so'z bilan aytganda, Qambar OTAning aksariyat she'rлarida bolalarning orzu-umidlarini, intilishlari, tabiat hodisalariga bo'lgan munosabati o'zining haqqoniylifodasini topgan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Shoirning quyidagi ijod namunalari orqali o'zingiz ham bunga yana bir bor amin bo'lasiz.

## QIRQOG' AYNI

Yashnab turgan qirqog'ayni,  
Bir-biriga ko'rak og'ayni.  
Qirqa kuyumi,  
Qirqa g'azal,  
Ma'noga boy, behad go'zal.  
Ko'z qamashar jamolingdan,  
Yurak quvnar kamolingdan.  
Gul umringga havasim zo'r,  
Hayotingga ixlosim zo'r.  
Chiroyingda xotirjamlik,  
Tabiatdan ko'rma kamlik.  
To'kis bo'lsa og'a-ning,  
Ochiladi bahr-u diling.



## GILAM TO'QIYMAN

Katta bo'lsam, albatta,  
Zar gilamlar to'qiyman.  
Hozir esa maktabda  
Uchinchida o'qiyman!

Kitobim menga hamroh,  
Doim yuraman ogoh.  
Bitirsam gar o'qishni  
Boshlab gilam to'qishni.

Zar gilamlar to'qiyman,  
Gullar naqshimi bosib.  
Xursand bo'lar buvimlar,  
Zarli gilamim osib.

Risolat ISROILOVA,  
poytaxtimizdag'i  
243-umumta'l'm  
maktabining  
3- «V» sinf o'quvchisi



## MEHRIBONIM O'ZINGIZ

Mehribonsiz o'zingiz,  
Buncha shirin so'zingiz.  
Mudom bizni o'ylaysiz,  
Bir olamdir mehringiz.

Men ham katta bo'lganda,  
Xuddi sizdek bo'laman.  
Quchoq-quchoq gul terib,  
Sizga hadya qilaman.

Zilolaxon RUSTAMOVA,  
Toshkent shahri, Uchtepa  
tumanidagi 297-umumta'l'm  
maktabining 5-«V» sinf o'quvchisi.  
Z. MAMATQULOVA  
olgan surat



## DO'RMONDA

Do'rmon tonglarining yuzida kulgu,  
Moviy osmonidan yog'ilar sehr.  
Yurtimming eng go'zal, so'lim bog'i bu,  
Uning keng bag'rida to'ladir mehr.

Yuzimdan poyonsiz shodlik ufurib,  
Do'rmonning muqaddas yo'lidan yurdim.  
Hamid Olimjonning, G'afur G'ulomning  
Qtidug' izlarini ko'zimga surdim.

Salobat nurlarin atrofga sochgan  
Menga tanish bunda har bitta chinor.  
Ular – so'z san'atin qulflarin ochgan  
Ustoz Said Ahmad, Abdulla Qahhor.

Baxtning kemasida suzganim sayin  
Qalbim hayajonda shodlikka to'lib.  
Shamollar sochimni silaydi mayin,  
Zulfiyaxonimning qo'llari bo'lib.

Shohinur USMONOVA,  
Sirdaryo viloyati, Sayhunobod tumani

## MERGANLAR SAFIDA

menga qaradilar. Dadam esa o'qrayib:

– Shunaqami? – dedilar.  
– Axir ular ham nima qilishsin,  
zerikishyapti, – ayam bizni oqlagan  
bo'dilar.

– Bo'lmasam, – dedilar dadam, –  
ertalabga o'rtoqlaringni yiqqin,  
to'garakka olib boraman. Merganlikni  
o'sha yerda o'rghanasizlar.

Xursand bo'lganimdan ayamning  
hay-haylashlariga qaramay, ko'chaga –  
Rahimberdi bilan Abdumajidni  
xabarlagani yugurdim...


Merganlik to'garagi mahallamizdan  
chiqaverishdagি katta ko'chada ekan.  
Darvozadan o'tib, keng hovliga kirdik.

To'garakka kapitan Davron Niyozbekov rahbarlik qilar ekan. Dadamning  
gapini eshitib, bizga qaradi.

– Mayli, tanishaylik, – dedi.  
Salomlashib, tanishdik.

– Bu yerda harbiy intizom qattiq, –  
dedi kapitan kulib. – Biz merganlikni  
ham, tez yugurishni, chaqqonlikni ham  
o'rgatamiz.

– Sog'lim bo'lish uchun barcha  
mashqlarni bajarishga tayyormiz, – dedik  
va o'sha kuniyoq merganlar safida qoldik.



Abdulhay NOSIR



O'zbekistonlik FIFA referisi Ravshan Ermatov futbol bo'yicha jahon championati final bosqichlarida eng ko'p uchrashuv boshqarib, o'ziga xos rekord o'rnatdi.

Hamyurtimiz Braziliyada bo'lib o'tgan jahon championating chorak finalida Gollandiya va Kosta-Rika terma jamoalari o'rtasidagi bahsi boshqarib, hakamlik faoliyati davomida jahon championatlaridagi to'qqizinch uchrashuvni o'tkazdi. E'tiborli, bugungacha jahon championatlari final bosqichlarida hali hech bir referi to'qqiza uchrashuvni boshqarmagan.

2003-yildan buyon FIFA tasnidagi musobaqlarda hakamlik qilib kelayotgan Ravshan Ermatov murakkab vaziyatlarda to'g'ri va tez qaror qabul qila olishi, futbolchilarning ruhiy holatini yaxshi tushunishi kabi fazilatlari tufayli qisqa vaqtida dunyoning eng yaxshi hakamlari safiga qo'shildi.

Hamyurtimiz 2010-yili ilk bor Janubiy Afrika Respublikasi maydonlarida o'tgan jahon championatida eng ko'p – beshta uchrashuvni boshqarib, xalqaro sport jamoatchiligi tomonidan musobaqaning eng yaxshi hakamlaridan biri sifatida e'tirof etilgandi. Quvonarli, FIFA Ravshan Ermatova Braziliyadagi futbol mundialida ham eng muhim bo'lgan to'rtta uchrashuvga bosh hakamlikni ishonib topshirdi.

Ayni paytda ujahondagi futbol hakamlari faoliyatini tahlil qiladigan worldreferee.com sayti tomonidan e'lon qilingan reytingda peshqadamlilik qilmoqda.

JAMSHID



Mustaqillik yillarda mamlakatimizda asrlarga tatiqulik ulkan bonyodkorlik ishlari amalga oshirildiki, buni ko'rib, har qanday kishining aqli shoshadi. Ayniqsa, yurtimizning chekka-chekka hududlarida bonyod etilayotgan zamonaviy ta'lim maskanlari, sport inshootlari, musiqa maktablari qishloq yoshlarining iste'dodini ro'yobga chiqarish, ularning bo'sh vaqtlarini mazmuni tashkil etish, farzandlarimiz o'rtasida sog'lom turmush tarzini keng targ'ib etishga zamin yaratayotir.

Kuni kecha Surxondaryo viloyati, Sho'rchi tumanida yangi sport majmuasining foydalanishga topshirilishi, tuman yoshlari uchun Istiqlolimizning 23 yilligiga ajoyib sovg'a bo'ldi. Mazkur majmua qurilishiga 150 million so'mdan ortiq mablag' sarf etildi. Endilikda, ushbu inshootda tuman yoshlari yengil atletika, basketbol, voleybol, minifutbol bilan shug'ullanish imkoniga ega bo'ldilar.

Majmua ochilishida so'zga chiqqanlar Prezidentimiz rahnamoligida mamlakatimizda bolalar sportiga qaratilayotgan yuksak e'tibor natijasida yosh sportchilarimizning nufuzli xalqaro musobaqlarda yuksak natijalarni qo'lga kiritib kelayotganimi alohida ta'kidladilar.

*Sho'rchilik yoshlar yaratilgan sharoitlardan unumli foydalanib, yuqori marralarni zabit etishiga tilakdoshmiz.*

## TA'TIL SPORT BILAN ZAVQLI

To'rt yoshidanoq badiiy gimnastika bilan shug'ullana boshlagan Zebiniso ilk bor «Moviy gumbazlar» xalqaro turnirida muvaffaqiyatlari

ishtirot etib, ustozlari ishonchini oqlagan edi. Qobiliyatli bu qizaloq bugun poytaxtimizdag'i 43-umumta'lim maktabining 2-sinfini a'lo baholarga yakunlab, yozgi ta'tilda ham sport mashg'ulotlari bilan band. Yaqinda bu tengdoshingiz Isroi Ning

Ashdod shahrida badiiy gimnastika bo'yicha o'tkazilgan «Ashdod Sea Cup» («Dengiz kubogi») III xalqaro musobaqasida ham faxrli o'ringa sazovor bo'ldi. Chaqqon va epchil, shuningdek, nafis harakatlar-u, o'ziga xos mashqlarni u murabbiyi Irina Kudryashevadan o'rganib kelmoqda.

Tilagimiz, yurtimizda Zebiniso kabi barkamol yoshlarimiz safi kengayaversin.

### OIZLARXON

Namanganda 19 yoshgacha bo'lgan o'smirlar va qizlar o'rtasida suv polosi bo'yicha O'zbekiston ochiq championati bo'lib o'tdi. Unda mamlakatimiz viloyatlari hamda Qozog'istonidan jami 11 jamoa qatnashdi.

G'OLB

### TOSHKENTLILKLAR

Championatning o'g'il bolalar o'rtasidagi bahslarida Toshkent shahrining Markaziy harbiy sport klubiga jamoasiga teng keladigan raqib topilmadi. Respublika ixtisoslashtirilgan

Olimpiya zaxiralari bolalar va o'smirlar sport maktabi ikkinchi, Namangan viloyati terma jamoasi uchinchi o'rinni egalladi.

Qizlar bellashuvida Respublika ixtisoslashtirilgan Olimpiya zaxiralari bolalar va o'smirlar sport maktabi jamoasi oltin, Toshkentning «Germes Tristmegist sport» klubiga vakillari kumush, namanganliklar bronza medalini qo'lga kiritdi.

Shoh MUHAMMAD

### SUZUUCHIMIZ NANKINGA BORADI

Joriy yilning 16 – 28-avgust kunlari Xitoyning Nankin shahrida o'tkaziladigan II o'smirlar Olimpiadasida ishtirot etadigan sportchilarimiz soni yana bittaga ko'paydi. Gap shundaki, suzish bo'yicha O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi iqtidorli a'zosi Andrey Pravdivsev ushbu nufuzli musobaqada ishtirot etish huquqini qo'lga kiritdi.

Xabarlingiz bor, yaqinda mamlakatimiz o'smirlar terma jamoasi Belorusning Brest shahrida suzish bo'yicha o'tkazilgan Olimpiada litsenziyasi beriladigan musobaqada ishtirot etib qaytgan edi. Ushbu turnirda Andrey «A» normativini, yana uch nafer sportchimiz – Aleksey Tarasenko, Artyom Puxnatiy va Temur Latipov «B» normativini bajarishgan edi. Qoidaga muvofiq, «A» normativini bajarganlar to'g'ridan to'g'ri nufuzli musobaqa yo'llanmasini qo'lga kirtsa, «B» normativini uddalaganlar orasidan eng yaxshi ko'rsatkichga ega bo'lgan sportchi ham ana shunday imkoniyatga ega bo'lar edi.

Yaqinda Xalqaro suzish federatsiyasi (FINA) hamyurtimiz Artyom Puxnatiy «Nankin – 2014»da ishtirot etishi haqida ma'lum qilgan bo'lsa bu galgi maktubda Andrey Pravdivsev ham o'smirlar Olimpiadasida qatnashishini bayon qilishgan.

Shu tariqa, II o'smirlar Olimpiadasida ishtirot etadigan sportchilarimiz soni 28 nafarga yetdi.

S. TURSINOV



Bu qiziqi!

# KICHIK SHAHARCHANING JAJJI HOKIMI



A QSHning

Minnesota shtati Dorset shaharchasi hokimi o'yingchoq mashinalar o'ynashni, qo'shiq kuylab raqsga tushishni va muzqaymoq yeyishni yaxshi ko'radi, chunki u bor-yo'g'i 5 yoshda.

kelgan edi. Buni qarangki, o'tgan yili bo'lib o'tgan saylovlarida yosh hokim yana muvaffaqiyat qozondi.

«Saylovda istagan ishtirokchi istagancha ovoz berishi mumkin. Har bir ovoz bir dollar turadi, byulletenlar yig'ib qutiga solinadi va aralashtirilib, bittasi tanlab olinadi. Unda kimning ismi yozilgan bo'lsa, o'sha inson Dorset hokimi etib saylanadi», deydi shu shaharchada yashovchi Janet Dadli ismli aylol.

Garchi shaharda qonuniy hokimiyat mavjud bo'lmasa-da, kichik siyosatchi o'z kasbiga mas'uliyat bilan yondashmoqda.

Bugungi kunda Robert bog'chaga qatnab, maktabga borish uchun jiddiy tayyorgarlik ko'moqda. Bog'cha va mas'uliyatlari vazifasidan bo'sh paytlarda esa jajji bolakay sayr qilishni va baliq ovlashni yoqtiradi.

Jamshid KAMOL

Boshga yarasha do'ppi deganlaridek, Minnesota shtati Dorset shaharchasi aholisi bor-yo'g'i 28 kishidan iborat. Hudud jihatdan Dorset uncha katta bo'lmasa-da, aholi o'z shahrini «Dunyo restoranlari poytaxti», deb ataydi, chunki bu yerda kishi boshiga deyarli bittadan restoran to'g'ri keladi.

Har yili bu yerda 4-avgust kuni an'anaviy «Dorset mazasi» festivali o'tkaziladi va bu bayramda shahar ahli o'ziga yangi hokim saylaydi. Ilk marta 2012-yili hokim bo'lgan jajji Robert yoqimtoyligi va kirishimliligi tufayli ko'p ovoz yig'ishga erishib, omidi

# IJODKOR SINFDOSHLAR



Dilafro'z Husanova chizgani rasmi

Dilafro'z Husanova poytaxtimizning Sergeli tumanidagi 267-umumta'lim maktabi 4-«A» sinf o'quvchisi. Dilafro'z zukko, qiziquvchan tengdoshlaridan biri bo'lib, u sport bilan shug'ullanishni, rasm chizishni juda yaxshi ko'radi.

Bu qizaloqning tahririyatga yuborgan rasmlari bizga ma'ql bo'lgani bois, tengdoshingiz ijodidan namunalarni sizlarga ham havola etishni lozim topdik.

Dilafro'zning sinfdoshi Qodirjon To'laganovning chizgan rasmlari ham bizni juda quvontirdi. Uning ijodiy ishlarni tomosha qilar ekanmiz, ko'plab ertak qahramonlari ko'z-o'ngimizda gavdalani, bir lahzaga bo'lsa-da, bolalikning go'zal olamiga sayohat qilgandek bo'ldik. Tengdoshlarining ijodini tomosha qilib, bunga o'zingiz ham amin bo'lasiz.

Yu. ABDULLAYEV

## «T» HARFI BILAN BOSHLANIB, «T» BILAN TUGAYDIGAN BOSHQOTIRMA

1	2	3	
7			
	6	5	4
8			
	19		
	14		
13			
	15		
9			
	12		
	18		
16			
11			
10	17		

### ARALASH TEST

1. Qaysi daraxt gullamay meva tugadi?

- (a) anjir;
- (b) behi;
- (c) shaftoli.

2. Hayotining asosiy qismi yer ostida o'tadigan jonivor ...

- (a) sichqon;
- (b) yumronqoziq;
- (c) chuvalchang.

3. Eng katta baliq ...

- (a) delfin;
- (b) kit;
- (c) nahang.

4. Osmondagi eng katta yorit-gich ...

- (a) Oy;
- (b) Quyosh;
- (c) yulduzlar.



## «KEBANA» SALATI

Salatni ilk bor yapon oshpaz ayoli tayyorlagan. Gap shundaki, bu salat masalliqilar «guldasta»sidan tayyorlaganligi uchun ham umga shunday nom berilgan.

**Kerakli masalliqlar:**  
100 gramm dudlangan kolbasa, 4 dona qaynatilgan tuxum, 150 gramm brinza yoki pishloq, 1 dona qaynatilgan qizil sabzi, 1 banka konservalangan jo'xori, mayonez, ta'bga ko'ra tuz.

**Tayyorlanishi:** dudlangan kolbasa, pishloq yoki brinza somoncha shaklida, tuxum va sabzi to'rburchak shaklda to'g'raladi. Unga konservalangan jo'xori, tuz qo'shiladi. Keyin ustiga mayonez quyilib, yaxshilab aralashtiriladi. Tayyor salat likopchalarga solinib, dasturxoniga tortiladi.

**Yoqimli ishtaha!**

NARGIZA tayyorladi

Fayzulla ABDULLAYEV  
tuzdi

8

# TONG YILDELDIZI

Bosh muharrir  
Feruza ADILOVA

### Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,  
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,  
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati  
Markaziy Kengashi,  
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatiga  
garashli bo'limagan xalqaro xayriya fondi.

Gazeta O'zbekiston Matbuot  
va axborot agentligida  
0208-raqam bilan 2007-yil  
2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

**TAHRIR HAY'ATI:**  
Omonulla YUNUSOV,  
Abdug'ani XOLBEKOV,  
Bahodir G'ANIYEV,  
Svetlana INOMOVA,  
Murtaza SULTONOV,  
Zoil ISAJONOV,  
Feruza JALILOVA,  
Sa'dullo TURSINOV  
(Bosh muharrir o'rinosbasi),  
Feruz MATYOQUBOV  
(mas'ul kotib),  
Sobitxon TURG'UNOV,  
Zikrilla TESHABOYEV

**Navbatchi  
muharrir**  
Dilorom  
HOTAMOVA  
**Rassom**  
Feruzbek  
KAMOL o'gli

**Manzilimiz:**  
Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Indeks: 100129.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail:  
info@tongyulduzi.uz  
www.tongyulduzi.uz

Tel./faks: 244-63-08  
Tel./faks:  
(99871) 244-38-10

**«O'zbekiston»**  
NMUda chop etildi.  
Tahririyatga keldigan barcha  
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,  
muallifflarga qaytarilmaydi.  
Haftaning dushanba kuni  
chiqadi.  
Shakli A-3, 2 bosma taboq.  
**ISSN 2010-6092**  
**Adadi - 30967**  
**Buyurtma - S 391**

14-iyul 2014